




Tovush o'zgarishlari talaffuz me'yorlariga bog'liq hodisa hisoblanib, og'zaki nutqda ma'lum tovush o'zgarishining yuzaga kelishi asosida hosil bo'ladi. Tovush tushishi, almashishi, ortishi va shu kabi hodisalar tovush o'zgarishlarining lingvistik tabiatini ozida aks ettiruvchi xususiyatlar hisoblanadi. Ba'zi chet ilmiy adabiyotlarida tovush o'zgarishlari borasida xilma-xil fikrlar yuritilgan. Xususan, 1988-yil Kiparskiy tomonidan ushbu istilohga ikki xil ta'rif berish kuzatiladi. Ya'ni, olimning aytishicha, tovush o'zgarishi ikki xil tushunilishi mumkin:



Biroq biz yuqoridagi fikrga qarama-qarshi fikrni ilgari surgan holda Kiparskiy aytgan mulohazalar tovushlarning ma'lum tabiatiga xos ekanligini ta'kidlamoqchimiz.

Demak, biz ilmiy jihatdan tadqiq etmoqchi bo'lgan tovush o'zgarishlari bu tovushlarning fonologik xususiyatidan kelib chiqqan holda anglashiladi. Ushbu yo'nalish tadqiqi XIV-XVI asrlarga borib taqaladi. Bauf va Kabllar tomonidan ilgari surilgan fikrlarga ko'ra avvalgi asrlarda mavjud bo'lgan tovush o'zgarishlari "Buyuk unlilarning ko'tarilishi" asarida o'z aksini topgan hamda bu asarda ifodalangan tovush o'zgarishlari, asosan, ingliz tilidagi fonologik jihatlarga taalluqli hisoblangan.

Bugungi kunda ham tilshunosligimizda tovush o'zgarishlariga oid qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, zamonaviy tilshunoslik oldida tovush o'zgarishlarining kompyuter lingvistikasi tadqiqotlariga tatbiq etilishi lingvistikaning oldida turgan dolzarb masala sanaladi. Sababi, tovush o'zgarishlariga oid tadqiqotlarni kompyuter lingvistikasi doirasida amalga oshirish ushbu yo'nalishning yanada keng yoyilishiga xizmat qiladi.

Qayd etib o'tish lozimki, tovush o'zgarishlarining zamonaviy lingvistik modellari qator omillarga asoslanadi:

- Birinchidan, ular ma'lum tajribalardan o'tkazilgan holda kompyuter lingvistikasi sohasiga tatbiq etiladi;

- Ikkinchidan, tovush o'zgarishlarining zamonaviy lingvistik modullarini aniqlash kompyuter lingvistikasida ma'lum formulalarga asoslanadi.

Yuqoridagi birinchi omil hamda ikkinchi omil o'zaro aloqador bo'lib, ularni bir-birisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu o'rinda ikkinchi jihatda alohida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir. Tovush o'zgarishlarining zamonaviy lingvistik

modullarini aniqlashda ma'lum formulalarga tayaniladi, ya'ni ularning qanday yuzaga kelishi qolip asosida amalga oshiriladi, jumladan, "Asos+qo'shimcha=tovush ortishi" formulasini quyidagi jadval asosida tahlil qilsak:

Asos+qo'shimcha=tovush ortishi				
No	Asos	Tovush ortishi	Qo'shimcha	Hosila
1	U	N	-ga	Unga
2	Bu	N	-day	Bunday
3	U	N	-aqa	Unaqa
4	Bu	N	-cha	Buncha
5	U	N	-dek	Undek

*I.I. Asoslarning qo'shilishi natijasida tovush almashish hodisasining yuzaga kelishi(asos+asos=tovush o'zgarishi)(2-model).*

No	Asos	Asos	Hosila
1	Ayta	Beradi	Aytaveradi
2	Qila	Beradi	Qilaveradi
3	Yoza	Beradi	Yozaveradi
4	Ko'ra	Beradi	Ko'raveradi

*I.II. Asos+qo'shimcha=tovush almashishi formulasi asosida yuzaga kelgan modul(3-modul).*

No	Asos	Qo'shimcha	Hosila
1	Yo'q	-i	Yo'g'i
2	O'rtoq	-i	O'rtog'i
3	Terak	-i	Teragi
4	kerak	-i	Keragi

*I.I. Asoslarning birikishi natijasida tovush tushish hodisasi(4-modul).*

No	Asos	Asos	Hosila
1	Yoza	Oladi	Yozoladi
2	Bora	Oladi	Boroladi
3	Ayta	Oladi	Aytoladi
4	Qila	Oladi	Qiloladi

*I.II. Asos+qo'shimcha=tovush tushishi formulasining zamonaviy lingvistik modeli(5-modul).*

No	Asos	Qo'shimcha	Hosila
1	O'g'il	-i	O'g'li
2	Singil	-i	Singli
3	Ko'ngil	-i	Ko'ngli
4	Shahar	-i	Shahri

Yuqoridagi jadvallardan ko'rinib turibdiki, tovush o'zgarishlarining zamonaviy lingvistik modullarini jadval hamda formula asosida tahlil qilish

ularning o'xshash hamda farqli jihatlarini yanada kengroq ochib berishga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, tovush o'zgarishlarining zamonaviy lingvistik modullarini yaratish tovush o'zgarishlarining mohiyatini yanada ochib berishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Anttila 1972 — R. Anttila. An introduction to historical and comparative linguistics. Macmillan, New York. Barnes 1999
2. J. Barnes. Tucano. In: The Amazonian languages. Ed by. R. Dixon & A. Aikhenvald. Cambridge University Press, Cambridge, pp. 207–226.
3. Baxter et al. 2006 — G. Baxter, R. Blythe, W. Croft, A. McKane. Utterance selection model of language change. *Physical Review E* 73, pp. 046118–1 — 046118–20.
4. Bermúdez-Otero 2007 — R. Bermúdez-Otero. Diachronic phonology. *The Cambridge handbook of phonology*. Ed by. P. de Lacy. Cambridge University Press, New York, pp. 497–517.
5. Beuchat & Rivet 1911 — H. Beuchat, P. Rivet. La famille Betoya ou tucano. *Memoir de la Societé Linguistique de Paris* 17, pp. 117–36. Blevins 2004 — J. Blevins.
6. Evolutionary phonology. The emergence of sound patterns. Cambridge University Press, Cambridge. Bouchard-Côté et al. 2013
- A. Bochar-Côté, D. Hall, T. Griffiths, D. Klein. Automated reconstruction of ancient languages using probabilistic models of sound change. *Proc. Natl. Acad. Sci. U. S. A.* 110.11, pp. 4224–4229.
7. Brinton 1891 — D. Brinton. The American race. A linguistic classification and ethnographic description of the native tribes of North and South America. N. D. C. Hodges, New York. Brown et al. 2013
8. C. Brown, E. Holman, S. Wichmann. Sound correspondences in the world's languages. *Language* 89.1, pp. 4–29. Brugmann 1967
9. K. Brugmann. Einleitung und Lautlehre: vergleichende Laut-, Stammbildungs- und Flexionslehre der indogermanischen Sprachen. Walter de Gruyter, Berlin, Leipzig. Bryant 2001
10. H. Bryant. Character polarity and the rooting of cladograms. *The character concept in evolutionary biology*. Ed by. G. Wagner. Academic Press, San Diego, London, pp. 319–342. Camin & Sokal 1965
11. J. Camin, R. Sokal. A method for deducing branching sequences in phylogeny. *Evolution* 19.3, pp. 311–327. Campbell 1999
12. L. Campbell. Historical linguistics. An introduction. Edinburgh Univ. Press, Edinburgh. Chacon 2013
13. T. Chacon. Kubeo: Linguistic and cultural interactions in the Upper Rio Negro. In: *Upper Rio Negro: Cultural and Linguistic Interaction in Northwestern Amazonia*. Ed by. P. Epps & K. Stenzel. Museu Nacional and Museu do Índio Funai, Rio de Janeiro, pp. 403–443.